

B.FR

Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



B.FR

Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма





acfp
Uzbekistan

Association of
Certified Finance
Professionals

B.FR

Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



Mundarija

I. Umumiy qoidalar	3
II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari	6
III. Imtihon formati	6
IV. Batafsil o'quv rejasi va o'qish maqsadlari	8

B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

I. Umumiy qoidalar


O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi («ACFP») CFS – Certified Finance Specialist bazaviy malakasi doirasida B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari imtihoniga tayyorgarlik dasturini ishlab chiqdi.

CFS malakasi tuzilishi

CFS bazaviy malakasini olish uchun nomzod B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslaridan tashqari, quyidagi imtihonlarni topshirishi lozim:

- B.FM Moliyani boshqarish asoslari
- B.AU Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar asoslari
- B.MA Boshqaruv hisobi asoslari
- B.TX Soliq solish asoslari
- B.OO Tashkilot va uning faoliyati
- B.LW Huquq asoslari
- B.PA Amaliy buxgalteriya asoslari

Shuningdek, «Axloq va professional xulq asoslari» (B.EP) kursidan o'tish zarur.



ACFP malaka darajalari tizimi

ACFP malakalari to'rtta izchil daraja bo'yicha turkumlangan:

- A darajasi (boshlang'ich)
- B darajasi (bazaviy)
- C darajasi (professional)
- D darajasi (ilg'or)




O'qishni bilim va ko'nikmalingizga muvofiq keladigan darajadan boshlash tavsiya etiladi. A darajasidan boshlash majburiy talab emas. Mos keladigan darajani tanlash o'z joriy malakasi va professional tajribasini mustaqil o'zi baholashga asoslanishi kerak.

B.FR imtihonining ACFP tizimidagi o'rni

B.FR imtihoni moliyaviy hisob va hisobotni bosqichma-bosqich o'rganishning bazaviy (ikkinchi) pog'onasi hisoblanadi va u quyidagicha topshirilishi mumkin:

- CFS malakasi (V darajasi) doirasida mustaqil imtihon sifatida;
- moliyaviy hisobotning murakkabroq darajalariga (FR Moliyaviy hisobot (ASSA, F7) va D.FR Strategik moliyaviy hisobot) o'tishdan oldin zarur bo'lgan pog'ona sifatida;
- moliyaviy sohada oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, ACCA va ACFP «Moliya va biznesni boshqarish» xalqaro diplomini olishni xohlovchi shaxslar uchun majburiy imtihon sifatida.



Ta'lim natijalari

B.FR imtihoni nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- moliyaviy hisobning fundamental tamoyillari va konsepsiyalarini o'zlashtirish
- asosiy xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishning amaliy ko'nikmalariga ega bo'lish
- moliyaviy hisobotning murakkabroq jihatlarini professional va ilg'or darajada o'rganishga tayyorgarlik ko'rish

Moliyaviy hisob va hisobot bo'yicha bazaviy bilim va ko'nikmalar moliya sohasi mutaxassisiga quyidagilarni amalga oshirish uchun zarur:

- tashkilotning namunaviy xo'jalik operatsiyalari hisobini yuritish;
- MHXSning bazaviy talablariga muvofiq moliyaviy hisobotning asosiy shakllarini tayyorlash;
- xo'jalik operatsiyalari va ularning hisobotda aks ettirilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish;
- moliyaviy hisobotning asosiy elementlarini to'g'ri tasniflash va baholash;
- hisob va hisobotdagi standart xatolarni aniqlash;
- moliya xizmatining boshqa mutaxassislari bilan samarali hamkorlik qilish.

ASSA akkreditatsiyasi

V.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari imtihoni dasturi ASSA (Association of Chartered Certified Accountants) akkreditatsiyasini olgan. Bu shuni anglatadiki:

- u ASSA «Moliya va biznesni boshqarishga kirish» diplomidagi FA Moliyaviy hisob fanining kamida 80% iga mos keladi;
- ACFPning uchta imtihoni (B.OO, B.MA va V.FR) muvaffaqiyatli topshirilganda talabaga ASSA IFB imtihoni hisobga olinadi.

O'quv yuklamasi

B.FR «Moliyaviy hisob va hisobot asoslari» imtihoniga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 180 soat talab etiladi:

O'quv faoliyati turi	Akademik soatlar soni
Onlayn-kurs	70
Amaliy mashg'ulotlar	70
Mustaqil ish	40
Jami	180

II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari

«Moliyaviy hisob va hisobot asoslari» fani bo'yicha imtihonga tayyorgarlik dasturining maqsadi nomoliyaviy sektordagi alohida tashkilotlar va tashkilotlar guruhlarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari va xarajatlarning asosiy moddalarini hisobga olish va hisobotda aks ettirish ko'nikmalarini o'zlashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

1. Moliyaviy hisobot tashqi foydalanuvchilar bilan muloqot mexanizmi sifatida
2. Kompaniyaning asosiy operatsiyalari hisobi
3. Moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni
4. Moliyaviy hisobotni to'liq bo'lmagan yozuvlar asosida tiklash
5. Kompaniyalar guruhi uchun hisobotni tayyorlash tamoyillari
6. Moliyaviy hisobotning bazaviy tahlili

Shu bilan birga, talabalardan bazaviy matematik ko'nikmalarga ega ekanliklarini namoyish etish talab etiladi, ularning bayoni o'quv rejasining 7 bo'limida keltirilgan.

Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- alohida kompaniya uchun MHXS asosidagi murakkab bo'lmagan quyidagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash:
 - moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot,
 - foyda va zararlar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot,
 - kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot va
 - pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot;
- kompaniyalar guruhi uchun murakkab bo'lmagan quyidagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash:
 - moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot va
 - foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot.

Bundan tashqari, muvaffaqiyatli talabalar alohida tashkilotlarning moliyaviy ahvoli va moliyaviy holati dinamikasi haqida xulosalar chiqara oladilar.

III. Imtihon formati

«Moliyaviy hisob va hisobot asoslari» fani bo'yicha imtihon kompyuterda topshiriladi. Imtihon davomiyligi – 2 soat. Imtihonda har qanday materiallardan foydalanish taqiqlanadi.

Imtihon ikki qismdan iborat. A qismi test formatidagi 35 ta savoldan iborat bo'lib, ularning har biri bir xil (2 ball) vaznga ega. A qismining umumiy vazni 70 ballni tashkil qiladi. A qismidagi savollar imtihon dasturining har qanday bo'limiga taalluqli bo'lishi mumkin.

Imtihonning B qismi har biri 15 ballik vaznga ega 2 ta ssenariydan iborat. Ssenariylarning har biri test formatidagi savollar guruhi bilan birga byeriladi. Shu tariqa, B qismining umumiy vazni 30 ballni tashkil qiladi.

B qismdagi ikkita ssenariydan birinchisi alohida kompaniya uchun bitta yoki bir nechta moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga bag'ishlangan. Ikkinchi ssenariy konsolidasiyalashgan hisobotni tayyorlashga bag'ishlangan. Ssenariyga kiritilgan alohida savollar 1 dan 4 ballgacha vaznga ega bo'lishi mumkin.

Imtihonda to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi. O'tish bali – 50 ball.

IV. Batafsil o'quv rejasi va o'qish maqsadlari

1-bo'lim. Moliyaviy hisobot tashqi foydalanuvchilar bilan muloqot mexanizmi sifatida

1.1-bo'linma. Tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tartibga solish konteksti

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Umumiy maqsadlardagi moliyaviy hisobotning maqsadlarini aniqlash;
- B. Hisobotning tashqi foydalanuvchilari asosiy guruhlarini sanab o'tish va ularning axborotga oid ehtiyojlarini bayon etish;
- C. Tashqi foydalanuvchilar uchun hisobotni tayyorlash bo'yicha mas'uliyatning tashkilot ichida taqsimlanishini tushuntirish;
- D. Tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tartibga solish tuzilmasini ham xalqaro ko'lamda (MHXS bo'yicha Kengash va Standartlarni sharhlash bo'yicha Qo'mita), hamda milliy ko'lamda (O'zbekiston Respublikasi Moliya va bandlik vazirligi) bayon etish;
- E. MHXSni va «Kichik va o'rta biznes korxonalari uchun MHXS standarti»ni taqqoslay olish.

1.2-bo'linma. Tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlashning asosiy tamoyillari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Faoliyatning uzluksizligi tamoyilini moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun asosiy taxmin sifatida belgilash;
- B. Moliyaviy hisobot elementlarini «Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari»ga muvofiq aniqlash;
- C. Moliyaviy axborotning sifat xususiyatlarini asosiy va to'ldiruvchi tavsiflarga tasniflagan holda «Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari»ga muvofiq aniqlash.

2-bo'lim: Kompaniyaning asosiy operatsiyalari hisobi

2.1-bo'linma. MHXS talablariga ko'ra zaxiralar hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IAS 2 «Zaxiralar» talablariga muvofiq zaxiralarni aniqlash;
- B. Zaxiralarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish tamoyillarini tushuntirish;
- C. Zaxiralar bo'yicha kreditorlik qarzini muddatidan oldin so'ndirganlik uchun chegirmalarni yetkazib beruvchilarning savdo chegirmalaridan farqlash;
- D. Zaxiralarning boshlang'ich qiymatini maxsus identifikasiyalash, o'rtacha tortilgan va FIFO uslublari bilan hisoblash;
- E. Zaxiralarni boshlang'ich bahosini hisoblash uslubining tanlovi foydaga va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda zaxiralar kattaligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntira bilish;
- F. Ishlab chiqarish kompaniyasida tovarlar harakatini va zaxiralarning boshlang'ich qiymatini shakllantirishni (xomashyo va materiallardan tayyor mahsulotgacha) schyotlarda qayd etish;

- G. Zaxiralarni keyingi baholanishini buxgalteriyaning ehtiyotkorlik tamoyilining amalga oshirilishi sifatida tushuntirish, boshlang'ich qiymatni realizasiya qilishning sof qiymatigacha hisobdan chiqarilishi operatsiyasini hisobda qayd etish;
- H. Yetkazib beruvchilarga to'lovning turli sxemalarida (oldindan to'lov, darhol to'lov yoki qarzga sotish) zaxiralar xaridini qayd etish;
- I. To'lovning turli sxemalarida xarid qilingan zaxiralarni qaytarishni hisob tizimida qayd etish;
- J. Zaxiralar harakatini hisobga olishda zarur bo'lgan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.2-bo'linma. MHXS / IFRS 15 «Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum» talablariga muvofiq tushum hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IFRS 15 «Tushum»ga ko'ra tushumni aniqlash;
- B. Tushumni hisobga olishning 5 ta qadamini sanab o'tish;
- C. o'zgaruvchan qoplash summasi sifatida hisobga olinuvchi xaridorlarga berilgan savdo chegirmalarini debitor qarzdorlikni muddatidan avval so'ndirganlik uchun chegirmalardan farqlash;
- D. Agentlik sotuvlar sxemasida xaridorlardan olingan summalarni va agent tushumini farqlash;
- E. Xaridorlar tomonidan turlicha to'lov sxemalarida (oldindan to'lov, darhol to'lov yoki qarzga sotishda) tushumni qayd etish;
- F. Sotuvlarning qaytarilishini, shuningdek, ularning ehtimolligidan kelib chiqib sotuvlarning kutilayotgan qaytarilishini qayd etish;
- G. Tushum hisobini yuritishda (jumladan, agentli sotuvlar sxemasida ham) talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish;
- H. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda tan olinishi lozim bo'lgan summalarni aniqlagan holda, nazoratni o'tkazish paytida tushumni tan olish tamoyilini qo'llash (faqat nazoratning bir vaqtning o'zida o'tkazilishi holatlari uchun);
- I. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda tan olinishi lozim bo'lgan summalarni aniqlagan holda, davr mobaynida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tushumni tan olish tamoyilini qo'llash (faqat buyurtmachi xizmat orqali yaratiladigan «aktiv»ni bir vaqtning o'zida olish va uni iste'mol qilishi holatlari uchun).

2.3-bo'linma: MHXS talablariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hisobi

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tashkilot QQS to'lovchisiga aylanadigan mezonlarni sanab o'tish;
- B. O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan QQS stavkalarini sanab o'tish;
- C. QQS bilan sotish va xarid qilish operatsiyalarini, shuningdek QQS bo'yicha byudjet bilan hisob-kitob operatsiyalarini ham jurnal shaklida, ham bosh kitobdagi QQS schyotida qayd etish;
- D. QQS hisobini yuritishda talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.4-bo'linma: MHXS / IAS 16 «Asosiy vositalar» talablariga muvofiq asosiy vositalar hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IAS 16 «Asosiy vositalar»ga ko'ra asosiy vositalarni aniqlash;
- B. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish tamoyillarini tushuntirish;
- C. Boshlang'ich qiymat bo'yicha keyingi baholash modelini tushuntirish;
- D. Amortizasiyani hisoblash usulini tanlash asosida mujassam bo'lgan tamoyillarni tushuntirish;
- E. Foydali xizmat muddati va/yoki tugatish qiymatining boshlang'ich baholari ahamiyatli darajada o'zgarganda ularni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini tushuntirish;
- F. Istalgan usulda amortizasiyani hisoblashni qayd etish;
- G. Keyingi baholashning qayta baholangan qiymat modelini tushuntirish;
- H. Haqqoniy qiymatni MHXS / IFRS 13 «Haqqoniy qiymatni baholash»ga muvofiq aniqlash;
- I. Asosiy vositalarni xarid qilish operatsiyalarini qayd etish;
- J. Asosiy vosita bo'yicha qayta baholash rezervining mavjudligini yoki mavjud emasligini hisobga olgan holda MHXS / IAS 16 «Asosiy vositalar»da ruxsat etilgan ikkala usulda qayta baholashni qayd etish;
- K. Boshlang'ich qiymat modeli hamda qayta baholangan qiymat modeli bo'yicha hisobga olinadigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan foyda yoki zararni hisoblash;
- L. Ilgari qayta baholangan asosiy vositaning hisobdan chiqarilishi operatsiyasini jamg'arilgan qayta baholash rezervini o'tkazish, shuningdek, jamg'arilgan qayta baholash rezervini o'tkazmaslik orqali qayd qilish va ortiqcha eskirishni o'tkazishni aks ettirish uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotdan ko'chirmani tayyorlash;
- M. Qayta baholash natijasida hosil bo'lgan ortiqcha eskirish summasini hisoblash va ortiqcha eskirishni o'tkazishni aks ettirish uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotdan ko'chirmani tayyorlash;
- N. Asosiy vositani hisobdan chiqarilishini bir vaqtning o'zida yangi asosiy vositani xarid qilish (trejd-in) bilan birga qayd etish va hisobdan chiqarish bo'yicha foyda yoki zararni hisoblash;
- O. Asosiy vositalarning hisobini yuritish uchun talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.5-bo'linma. MHXS / IAS 38 «Nomoddiy aktivlar» talablariga muvofiq nomoddiy aktivlar hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IAS 38 «Nomoddiy aktivlar»ga muvofiq nomoddiy aktivlarni aniqlash;
- B. zamonaviy tashkilotda nomoddiy aktivlarning asosiy sinflarini sanab o'tish;
- C. nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish tamoyillarini tushuntirish;
- D. nomoddiy aktivlarni boshlang'ich va qayta baholangan qiymati bo'yicha keyingi baholash modellarini tushuntirish;
- E. nomoddiy aktivlarga nisbatan qayta baholangan qiymat bo'yicha hisob modelini qo'llashga nisbatan standart tomonidan belgilangan cheklovlarni bayon etish;

- F. nomoddiy aktivlarning amortizasiyasini hisoblash asosida yotgan yondashuvlarni, shu jumladan, foydali xizmat muddatini baholash bilan bog'liq murakkabliklarni tushuntirish;
- G. tadqiqotlarga va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarni aniqlash va ular o'rtasidagi farqni tushuntirish;
- H. tadqiqotlarga va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlarni bosh kitobning schyotlarida qayd etish;
- I. nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.6-bo'linma. MHXS / IAS 37 «Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar» talablariga muvofiq baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IAS 37 «Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar»ga muvofiq baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarni aniqlash;
- B. O'tmishdagi majburiyatlar yuklaydigan hodisalarni kelajakda majburiyatlarni muqarrar bajarishga olib keluvchi hodisalar sifatida ta'riflash;
- C. Yuridik majburiyatlarni amaliyot bilan bog'liq majburiyatlar bilan taqqoslash;
- D. Hisobotda baholangan majburiyatlarni tan olish tamoyillarini va ularni ekspert bahosi uslubi bilan baholashni tushuntirish;
- E. Baholangan majburiyatlarni bosh kitobning schyotlarida boshlang'ich tan olinishida hamda ularning bahosini keyinchalik o'zgarishida qayd etish;
- F. Shartli va baholangan majburiyatlarni o'zaro taqqoslash va shartli majburiyatlarni hisobotda tan olishga oid yondashuvni tushuntirish;
- G. Shartli majburiyatlarni va shartli aktivlarni o'zaro taqqoslash va shartli aktivlarni hisobotda olishga oid yondashuvni tushuntirish;
- H. Baholangan majburiyatlarning hisobi va shartli majburiyatlarni hamda shartli aktivlarni hisobotda aks ettirish bo'yicha talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.7-bo'linma. MHXS talablariga muvofiq aksiyadorlik kapitali va qarzli moliyalashtirish hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS / IAS 32 «Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish»ga ko'ra xususiy va qarz kapitalini farqlash;
- B. Oddiy qarzlar va kuponli obligasiyalar bo'yicha foiz xarajatlarini bir davr uchun yoki proporsional-vaqtbay asosda davrning bir qismi uchun hisoblashni va so'ndirishni qayd etish (faqat samarali foiz stavkasi kupon stavkasiga teng bo'lgan holda);
- C. Kompaniyaning oddiy va imtiyozli aksiyalari o'rtasidagi farqlarni tushuntirish;
- D. Aksiyadorlik kapitali va emission daromad schyotlarini farqlagan holda, kompaniyaning oddiy aksiyalari emissiyasini darhol to'lov, oldindan to'lov va kechiktirilgan to'lov bilan qayd etish;

- E. Aksiyalarning bepul (bonusli) emissiyasiga ta'rif berish va uni bosh kitobning schyotlarida qayd etish;
- F. Huquqlarni chiqarish doirasidagi aksiyalar emissiyasini bosh kitobning schyotlarida qayd etish, huquqlar chiqarilishiga ta'rif berish;
- G. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni hisoblashni va so'ndirishni qayd etish;
- H. Aksiyadorlik kapitali va qarzli moliyalashtirish hisobini yuritishda talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

2.8-bo'linma. MHXS / IFRS 9 «Moliyaviy instrumentlar» talablariga muvofiq debitor qarzdorlikning qadrsizlanishi hisobining asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. debitor qarzdorlikning qadrsizlanishini hisobga olish va uni tiklash operatsiyalarini qayd etish;
- B. berilgan axborot asosida bitta debitor hamda debitorlar guruhi uchun debitor qarzdorlikning qadrsizlanishi summasini hisoblash;
- C. debitor qarzdorlikning qadrsizlanishi bo'yicha birlamchi rezervni hisobga olish va uning keyingi o'zgarishlari operatsiyalarini qayd etish;
- D. debitor qarzdorlikning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv o'zgarishlarining davr uchun foydaga va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotga ta'sirini tushuntirish;
- E. debitor qarzdorlikning qadrsizlanishi bo'yicha rezervning hisobini yuritishda talab etiladigan asosiy birlamchi buxgalteriya hujjatlarini sanab o'tish.

3-bo'lim: Moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni

3.1-bo'linma. Biznesning operatsiyalari to'g'risidagi axborotni qayd etish tizimi

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Ikkiyoqlama yozuv tizimini, buxgalteriya tenglamasini va biznes tenglamasini tushuntirish;
- B. Hisob tizimi tuzilmasini tushuntirish, shuningdek, uning tarkibiy modullarining (xaridlar kitobi, sotuvlar kitobi va h. k.) vazifasini sanab o'tish va o'zaro bog'liqligini tushuntirish;
- C. MHXS tizimida schyotlarning yagona rejasi mavjud emasligiga qaramay, tashkilotning schyotlar rejasining vazifasi va tuzilishini tushuntirish;
- D. Hisob axborotini qayd etish tizimida qaydnomalar va jurnallarning rolini tushuntirish;
- E. Jurnaldagi o'tkazmalarni ularning ta'rifiga ko'ra tanlash;
- F. Tashkilotda naqd pul mablag'lari aylanmasini hisobga olish tizimlarini (shu jumladan kamaymaydigan qoldikli tizimni hisobga olgan holda) tushuntirish;
- G. Hisob siyosatini aniqlash va uning asosiy vazifalarini tushuntirish.

3.2-bo'linma. MHXS / IAS 1 «Moliyaviy hisobotni taqdim etish»ning talablariga muvofiq moliyaviy hisobotning formati

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. MHXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot formatini tavsiflash;
- B. aylanmadagi va aylanmadan tashqari aktivlar hamda uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi farqni tushuntirish;
- C. moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda xususiy kapitalni komponentlarga bo'lish zaruratini tushuntirish;
- D. moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot bilan buxgalteriya tenglamasi o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish;
- E. daromadlarni va xarajatlarni guruhlashning ehtimoliy variantlarini hisobga olgan holda, MXHSga ko'ra foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot shaklini bayon etish;
- F. foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda alohida ko'rsatilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlarning zaruriy moddalarini sanab o'tish;
- G. foyda va zararlar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot va kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirish;
- H. xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot formatini tavsiflash va uning imtihon dasturiga kiritilgan komponentlarini sanab o'tish;
- I. moliyaviy hisobotni tayyorlash kontekstida muhimlik tushunchasini tushuntirish;
- J. moliyaviy hisobotdagi yoritishlarning asosiy komponentlarini sanab o'tish.

3.3-bo'linma. Aylanma-qoldiq qaydnomasini tayyorlash va tahlil qilish

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. bosh kitobning schyotlaridan aylanma-qoldiq qaydnomasini tayyorlash;
- B. zamonaviy hisobda aniqlashtirish jarayonidagi schyotning paydo bo'lishi sabablarini tushuntirish va aniqlashtirish jarayonidagi schyotning qoldig'ini nolga aylantirish bo'yicha o'tkazmalarni qayd etish;
- C. ikkiyoqlama yozuvga oid xatolarning turli shakllarini aniqlash;
- D. buxgalteriya xatolarining va ularni tuzatishning davr uchun foydaga ta'sirini tushuntirish;
- E. hisobotdagi debitor qarzdorlik summasini tasdiqlash uchun xaridorlar bilan solishtirmalarni tayyorlash va foydaga ta'sirini baholagan holda aniqlangan xatolarni tuzatish;
- F. hisobotdagi kreditor qarzdorlik summasini tasdiqlash maqsadida yetkazib beruvchilar bilan solishtirmalarni tayyorlash va foydaga ta'sirini baholagan holda aniqlangan xatolarni tuzatish;
- G. hisobotdagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari summasini tasdiqlash uchun bank bilan solishtirmani tayyorlash va foydaga ta'sirini baholagan holda aniqlangan xatolarni tuzatish;
- H. aylanma-qoldiq qaydnomasidagi hisoblanmalar va berilgan bo'naklar bo'yicha tuzatishlar kiritish zaruriyatini tushuntirish.

3.4-bo'linma. Hisobot davrini yopish jarayoni

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Barcha tekshiruvlar tugaganidan so'ng bosh kitob schyotlarini yopishni amalga oshirish;
- B. Aylanma-qoldiq qaydnomasining ma'lumotlari asosida kompaniya yoki yakka tartibdagi tadbirkor uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni, kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotni tayyorlash;
- C. Davrni yopishga oid asosiy tuzatishlarni amalga oshirish: hisoblanmalar/berilgan bo'naklar (shu jumladan, joriy soliqni va mol-mulk solig'ini hisoblash), amortizatsiyani hisoblash, xaziralarning chiquvchi qoldig'iga tuzatish kiritish, debitorlik qarzining qadrsizlanishi bo'yicha rezervni hisoblash va imtihon dasturiga kiritilgan boshqa aks ettirilmagan hodisalar;
- D. Hisobot davridan keyingi hodisalarning hisobotga ta'sirini inobatga olgan holda moliyaviy hisobotni tayyorlashning vaqtga bog'liq jihatini bayon etish;
- E. Hisobot davri tugaganidan keyin tuzatish kirituvchi va tuzatish kiritmaydigan hodisalarni aniqlash;
- F. Imtihon dasturiga kiritilgan odatdagi hodisalarni hisobot davri tugaganidan so'ng tuzatish kiritadigan va tuzatish kiritmaydiganlarga ajratish;
- G. Bevosita moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bir qatorda hisobotga oid qo'shimcha axborotni yoritish zaruriyatini tushuntirish.

3.5-bo'linma. MHXS / IAS 7 «Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot» talablariga muvofiq pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni tayyorlash

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Uchta moliyaviy hisobotga qo'shimcha ravishda alohida pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning zaruriyatini tushuntirish;
- B. Foyda va pul oqimlarini farqlash;
- C. MHXS talablariga ko'ra pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobotning ikkala formatini tavsiflash;
- D. Imtihon dasturiga kiritilgan operatsiyalarning pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning tegishli kategoriyalariga ta'sirini aniqlash;
- E. Berilgan axborot asosida operasion faoliyatdan pul oqimlari summasini hisoblab chiqarish;
- F. Berilgan axborot asosida investision faoliyatdan pul oqimlari summasini hisoblab chiqarish;
- G. Berilgan axborot asosida moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari summasini hisoblab chiqarish;
- H. Foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlardan aksiyadorlik kompaniyasi uchun pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobotni bevosita va bilvosita uslub bilan tayyorlash;
- I. Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari tarkibiga qanday moddalar kirishi mumkinligini sanab o'tish.

4-bo'lim: Moliyaviy hisobotni to'liq bo'lmagan yozuvlar asosida tiklash

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. To'liq bo'lmagan hisob yozuvlari asosida yakka tartibdagi tadbirkor uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni, kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotni tayyorlash;
- B. Tushumning, tannarxning va yalpi foydaning, shuningdek, zaxiralarning kiruvchi yoki chiquvchi qoldiqlari va davr uchun zaxiralarning xaridlari hajmining yetishmayotgan moddalarini izlash uchun ustama va/yoki foyda normasi formulalarini qo'llash;
- C. Sotuvlar tannarxini analitik baholash uslubini zaxiralarning kiruvchi va chiquvchi qoldig'i bilan davr uchun zaxiralar xaridining hajmi o'rtasidagi farq sifatida qo'llash;
- D. Debitor qarzdorlikning (olingan bo'naklarning) davr uchun dinamikasidan va xaridorlardan olingan summalardan davr uchun daromadlarni hisoblash;
- E. Kreditor qarzdorlikning (berilgan bo'naklarning) davr uchun dinamikasidan va yetkazib beruvchilarga to'langan summalardan davr uchun xarajatlarni hisoblash;
- F. Hisoblanmalarning (akkruallarning) davr uchun dinamikasi va kontragentlarga yoki kontragentlar tomonidan to'langan summalardan davr uchun daromadlarni yoki xarajatlarni hisoblash;
- G. Xaridorlar va yetkazib beruvchilar bilan solishtirma ma'lumotlar asosida debitor yoki kreditor qarzdorlik kattaligini hisoblash;
- H. Bank bilan solishtirma ma'lumotlar asosida pul mablag'lari balansi kattaligini hisoblash;
- I. Aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning harakati asosida yakka tartibdagi tadbirkor kapitalidagi o'zgarishlarni hisoblash.

5-bo'lim: Kompaniyalar guruhi uchun hisobotni tayyorlash tamoyillari

5.1-bo'linma. MHXS / IFRS 10 «Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot» va MHXS / IFRS 3 «Biznes birlashuvlari» talablariga muvofiq konsolidasiyalashgan hisobotni tayyorlash asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Investisiyalar ob'yektini shu'ba kompaniyasi sifatida tasniflash uchun zarur bo'lgan nazorat mezonlarini sanab o'tish;
- B. Gudvil va nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushning to'liq yoki qisman hisobga olish uslublarini tanlash imkonini beradigan shartlarni ajrata olish;
- C. Sho'ba kompaniyadagi nazorat kuchiga ega ulush faqat bir vaqtning o'zida xarid qilinganida, shu jumladan, sho'ba kompaniyasi joriy davrda xarid qilinganida konsolidasiyalashgan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot va konsolidasiyalashgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tayyorlash;
- D. Gudvilni ham qisman, ham to'liq uslubda hisoblash formulasini qo'llash va tushuntirish (investisiyalar faqat pul mablag'lari bilan to'liq va darhol to'langanda);
- E. Gudvilning MHXS / IAS 38 «Nomoddiy aktivlar» bilan tartibga solinadigan boshqa nomoddiy aktivlardan farqini tushuntirish;

- F. Shu'ba kompaniyaning xarid qilish sanasidagi individual sof aktivlari qiymatini haqqoniy qiymatgacha tuzatish (faqat amortizasiya qilinmaydigan aktiv, ya'ni yer misolida);
- G. Sho'ba kompaniyadagi nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushni ham qisman, ham to'liq uslubda hisoblash formulasini qo'llash va tushuntirish;
- H. Konsolidasiyalashgan taqsimlanmagan foydani hisoblash formulasini qo'llash va tushuntirish;
- I. Guruh ichida balanslangan debitorlik va kreditorlik qarzlarning paydo bo'lishi sababini va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot uchun zarur tuzatishlarni tushuntirish;
- J. Zaxiralarning guruh ichidagi savdosida realizasiya qilinmagan foydaning paydo bo'lishi sababini va sotuvlar yo'nalishini hisobga olgan holda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot uchun zaruriy tuzatishlarni tushuntirish;
- K. Ichki guruh aylanmalarining paydo bo'lishi sababini va foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot uchun zaruriy tuzatishlarni tushuntirish;
- L. Zaxiralarning guruh ichidagi savdosida realizasiya qilinmagan foydaning paydo bo'lishi sababini va sotuvlar yo'nalishini hisobga olgan holda foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot uchun zaruriy tuzatishlarni tushuntirish.

Izoh: ushbu bo'linmaga shu'ba kompaniyasi gudvilining qadrsizlanishi, shu'ba kompaniyaning xarid sanasidagi sof aktivlarini haqqoniy qiymatgacha tuzatishlar (5.1.F-bandida ko'rsatilganlaridan tashqari) kirmaydi. Bundan tashqari, shu'ba kompaniyadagi egalik qilish ulushining o'zgarishlari va shu'ba kompaniyaning chiqib ketishi bo'linmadan olib tashlangan.

5.2-bo'linma. MHXS / IAS 28 «Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investisiyalar» talablariga muvofiq ta'sir ostidagi kompaniyalarning ulushli hisobi asoslari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Ahamiyatli ta'sir vaziyatining vujudga kelishi va investisiya ob'yektini ta'sir ostidagi kompaniya sifatida tasniflash uchun zarur bo'lgan mezonlarni sanab o'tish;
- B. Keltirilgan axborot asosida nazorat va ahamiyatli ta'sirni farqlash;
- C. investor kompaniyaning moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti uchun ta'sir ostidagi Kompaniyaga investisiyalarni ulushli hisobga olish tamoyilini, jumladan ta'sir ostidagi kompaniya yil davomida harid qilinganida, qo'llash va tushuntirish;
- D. Investor kompaniyaning foyda va zararlar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisoboti uchun ta'sir ostidagi kompaniyaga investisiyalarni ulushli hisobga olish tamoyilini, jumladan ta'sir ostidagi kompaniya yil davomida xarid qilinganida, qo'llash va tushuntirish.

Izoh: realizasiya qilinmagan foyda bo'yicha tuzatishlar, ta'sir ostidagi kompaniyaga investisiyalarning qadrsizlanishi, ta'sir ostidagi kompaniyaning xarid sanasidagi sof aktivlarini haqqoniy qiymatgacha tuzatishlar ushbu bo'linmaga kirmaydi. Bundan tashqari, ta'sir ostidagi kompaniyaga egalik qilish ulushining o'zgarishlari va ta'sir ostidagi kompaniyaning chiqib ketishi bo'linmadan olib tashlangan.

6-bo'lim: Moliyaviy hisobotning bazaviy tahlili

6.1-bo'linma. Moliyaviy hisobot tahlilining maqsadlari, uslublari va cheklovlari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. moliyaviy hisobotning bazaviy tahlili maqsadlari va uslublari tushuntirish;
- B. koeffisiyentli tahlilning asosiy cheklovlarini tushuntirish.

6.2-bo'linma. Moliyaviy hisobot tahlilining asosiy instrumentlari

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Moliyaviy hisobotning gorizontal, vertikal va koeffisiyentli tahlilini tushuntirish;
- B. Asosiy moliyaviy koeffisiyentlarni bir necha kategoriyalarga (likvidlik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik va aktivlardan foydalanish samaradorligiga) tasniflash;
- C. Joriy va muddatli likvidlik koeffisiyentlari formulasini qo'llash hamda umuman olganda va tahlil qilinayotgan tashkilot holatida ularning ahamiyatini tushuntirish;
- D. Kompaniya likvidligiga ta'sir qiluvchi moliyaviy omillarni tushuntirish;
- E. Sof foyda marjasi, operasion foyda marjasi va yalpi foyda marjasi, kiritilgan kapital rentabelligi va xususiy kapital rentabelligi koeffisiyentlarining formulasini qo'llash hamda umuman olganda va tahlil qilinayotgan tashkilot holatida ularning ahamiyatini tushuntirish;
- F. Kompaniyaning rentabelligiga ta'sir qiluvchi moliyaviy omillarni tushuntirish;
- G. Moliyaviy dastak koeffisiyentlarini va foizlarni qoplash koeffisiyenti formulasini qo'llash va umuman olganda hamda tahlil qilinayotgan tashkilot holatida ularning ahamiyatini tushuntirish;
- H. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi moliyaviy omillarni tushuntirish;
- I. Aylanmadan tashqari aktivlarning aylanuvchanligi (necha marta hisobida), debitor qarzdorlik aylanuvchanligi (necha marta va kunlar hisobida), kreditor qarzdorlik aylanuvchanligi (necha marta va kunlar hisobida) va umumiy zaxiralarning aylanuvchanligi (necha marta va kunlar hisobida) koeffisiyentlari formulasini qo'llash hamda umuman olganda va tahlil qilinayotgan tashkilot holatida ularning ahamiyatini tushuntirish;
- J. Kompaniya aktivlarini boshqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi moliyaviy omillarni tushuntirish.

7-bo'lim: Matematik ko'nikmalar

Ushbu bo'linmani o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A. Bir noma'lumli chiziqli tenglamalarni yechish;
- B. Butun songacha, shuningdek verguldan keyin bitta yoki ikkita belgigacha yaxlitlash usullarini qo'llash.



V.FR

Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма



Мундарижа

I. Умумий қоидалар	3
II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари.....	6
III. Имтиҳон формати	7
IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқиш мақсадлари	8

В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун ўқув-услубий қўлланма

I. Умумий қоидалар

Ўзбекистон сертификатланган молия мутахассислари уюшмаси («ACFP») CFS – Certified Finance Specialist базавий малакаси доирасида В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари имтиҳонига тайёргарлик дастурини ишлаб чиқди.

CFS малакаси тузилиши

CFS базавий малакасини олиш учун номзод В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асосларидан ташқари, қуйидаги имтиҳонларни топшириши лозим:


- В.FM Молияни бошқариш асослари
- В.AU Аудит ва ишончни таъминлайдиган топшириқлар асослари
- В.МА Бошқарув ҳисоби асослари
- В.ТХ Солиқ солиш асослари
- В.ОО Ташкилот ва унинг фаолияти
- В.LW Ҳуқуқ асослари
- В.РА Амалий бухгалтерия асослари

Шунингдек, «Ахлоқ ва профессионал хулқ асослари» (В.ЕР) курсидан ўтиш зарур.



cfs

Certified
Finance
Specialist



ACFP малака даражалари тизими

ACFP малакалари тўртта изчил даража бўйича туркумланган:

- А даражаси (бошланғич)
- В даражаси (базавий)
- С даражаси (профессионал)
- D даражаси (илғор)




Ўқишни билим ва кўникмаларингизга мувофиқ келадиган даражадан бошлаш тавсия этилади. А даражасидан бошлаш мажбурий талаб эмас. Мас келадиган даражани танлаш ўз жорий малакаси ва профессионал тажрибасини мустақил ўзи баҳолашга асосланиши керак.

В.ВР имтиҳонининг ACFP тизимидаги ўрни

В.ВР имтиҳони молиявий ҳисоб ва ҳисоботни босқичма-босқич ўрганишнинг базавий (иккинчи) поғонаси ҳисобланади ва у қуйидагича топширилиши мумкин:

- CFS малакаси (В даражаси) доирасида мустақил имтиҳон сифатида;
- молиявий ҳисоботнинг мураккаброқ даражаларига (ВР Молиявий ҳисобот (АССА, F7) ва D.ВР Стратегик молиявий ҳисобот) ўтишдан олдин зарур бўлган поғона сифатида;
- молиявий соҳада олий маълумотга эга бўлмаган, АССА ва ACFP «Молия ва бизнесни бошқариш» халқаро дипломини олишни хоҳловчи шахслар учун мажбурий имтиҳон сифатида.



Таълим натижалари

В.FR имтиҳони номзодларга қуйидаги имкониятларни тақдим этади:

- молиявий ҳисобнинг фундаментал тамойиллари ва концепцияларини ўзлаштириш
- асосий хўжалик операцияларини акс эттиришнинг амалий кўникмаларига эга бўлиш
- молиявий ҳисоботнинг мураккаброқ жиҳатларини профессионал ва илғор даражада ўрганишга тайёргарлик кўриш

Молиявий ҳисоб ва ҳисобот бўйича базавий билим ва кўникмалар молия соҳаси мутахассисига қуйидагиларни амалга ошириш учун зарур:

- ташкилотнинг намунавий хўжалик операциялари ҳисобини юритиш;
- МҲҲСнинг базавий талабларига мувофиқ молиявий ҳисоботнинг асосий шаклларини тайёрлаш;
- хўжалик операциялари ва уларнинг ҳисоботда акс эттирилиши ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тушуниш;
- молиявий ҳисоботнинг асосий элементларини тўғри таснифлаш ва баҳолаш;
- ҳисоб ва ҳисоботдаги стандарт хатоларни аниқлаш;
- молия хизматининг бошқа мутахассислари билан самарали ҳамкорлик қилиш.

ACCA аккредитацияси

В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари имтиҳони дастури ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) аккредитациясини олган. Бу шуни англатадики:

- у ACCA «Молия ва бизнесни бошқаришга кириш» дипломидаги FA Молиявий ҳисоб фанининг камида 80% ига мос келади;
- АСФРнинг учта имтиҳони (В.ОО, В.МА ва В.FR) муваффақиятли топширилганда талабага ACCA IFB имтиҳони ҳисобга олинади.

Ўқув юкламаси

В.ФР «Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари» имтиҳонига тайёргарлик кўриш учун камида 180 соат талаб этилади:

Ўқув фаолияти тури	Академик соатлар сони
Онлайн-курс	70
Амалий машғулотлар	70
Мустақил иш	40
Жами	180

II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари

«Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари» фани бўйича имтиҳонга тайёргарлик дастурининг мақсади номолиявий сектордаги алоҳида ташкилотлар ва ташкилотлар гуруҳларининг активлари, мажбуриятлари, капитали, даромадлари ва харажатларининг асосий моддаларини ҳисобга олиш ва ҳисоботда акс эттириш кўникмаларини ўзлаштиришдан иборат.

Ушбу мақсадга эришиш учун дастур қуйидаги бўлимларни ўз ичига олган:

1. Молиявий ҳисобот ташқи фойдаланувчилар билан мулоқот механизми сифатида
2. Компаниянинг асосий операциялари ҳисоби
3. Молиявий ҳисоботни тайёрлаш жараёни
4. Молиявий ҳисоботни тўлиқ бўлмаган ёзувлар асосида тиклаш
5. Компаниялар гуруҳи учун ҳисоботни тайёрлаш тамойиллари
6. Молиявий ҳисоботнинг базавий таҳлили

Шу билан бирга, талабалардан базавий математик кўникмаларга эга эканликларини намойиш этиш талаб этилади, уларнинг баёни ўқув режасининг 7 бўлимида келтирилган.

Имтиҳонни муваффақиятли топширгандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- алоҳида компания учун МҲХС асосидаги мураккаб бўлмаган қуйидаги молиявий ҳисоботларни тайёрлаш:
 - молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот,
 - фойда ва зарарлар ҳамда бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот,
 - капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисобот ва
 - пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот;
- компаниялар гуруҳи учун мураккаб бўлмаган қуйидаги молиявий ҳисоботларни тайёрлаш:
 - молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот ва
 - фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисобот.

Бундан ташқари, муваффақиятли талабалар алоҳида ташкилотларнинг молиявий аҳволи ва молиявий ҳолати динамикаси ҳақида хулосалар чиқара оладилар.

III. Имтиҳон формати

«Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари» фани бўйича имтиҳон компьютерда топширилади. Имтиҳон давомийлиги – 2 соат. Имтиҳонда ҳар қандай материаллардан фойдаланиш тақиқланади.

Имтиҳон икки қисмдан иборат. А қисми тест форматидаги 35 та саволдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири бир хил (2 баллдан) вазнга эга. А қисмининг умумий вазни 70 баллни ташкил қилади. А қисмидаги саволлар имтиҳон дастурининг ҳар қандай бўлимига тааллуқли бўлиши мумкин.

Имтиҳоннинг В қисми ҳар бири 15 баллик вазнга эга 2 та сценарийдан иборат. Сценарийларнинг ҳар бири тест форматидаги саволлар гуруҳи билан бирга берилади. Шу тариқа, В қисмининг умумий вазни 30 баллни ташкил қилади.

В қисмдаги иккита сценарийдан биринчиси алоҳида компания учун битта ёки бир нечта молиявий ҳисоботларни тайёрлашга бағишланган. Иккинчи сценарий консолидациялашган ҳисоботни тайёрлашга бағишланган. Сценарийга киритилган алоҳида саволлар 1 дан 4 баллгача вазнга эга бўлиши мумкин.

Имтиҳонда тўплаш мумкин бўлган энг юқори натижа 100 баллни ташкил этади. Ўтиш бали – 50 балл.

IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқиш мақсадлари

1-бўлим. Молиявий ҳисобот ташқи фойдаланувчилар билан мулоқот механизми сифатида

1.1-бўлинма. Ташқи фойдаланувчилар учун молиявий ҳисоботни тартибга солиш контексти

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Умумий мақсадлардаги молиявий ҳисоботнинг мақсадларини аниқлаш;
- B. Ҳисоботнинг ташқи фойдаланувчилари асосий гуруҳларини санаб ўтиш ва уларнинг ахборотга оид эҳтиёжларини баён этиш;
- C. Ташқи фойдаланувчилар учун ҳисоботни тайёрлаш бўйича масъулиятнинг ташкилот ичида тақсимланишини тушунтириш;
- D. Ташқи фойдаланувчилар учун молиявий ҳисоботни тартибга солиш тузилмасини ҳам халқаро кўламда (МҲХС бўйича Кенгаш ва Стандартларни шарҳлаш бўйича Қўмита), ҳамда миллий кўламда (Ўзбекистон Республикаси Молия ва бандлик вазирлиги) баён этиш;
- E. МҲХСни ва «Кичик ва ўрта бизнес корхоналари учун МҲХС стандарти»ни таққослай олиш.

1.2-бўлинма. Ташқи фойдаланувчилар учун молиявий ҳисоботни тайёрлашнинг асосий тамойиллари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Фаолиятнинг ўзлуксизлиги тамойилини молиявий ҳисоботни тайёрлаш учун асосий тахмин сифатида белгилаш;
- B. Молиявий ҳисобот элементларини «Молиявий ҳисоботнинг концептуал асослари»га мувофиқ аниқлаш;
- C. Молиявий ахборотнинг сифат хусусиятларини асосий ва тўлдирувчи тавсифларга таснифлаган ҳолда «Молиявий ҳисоботнинг концептуал асослари»га мувофиқ аниқлаш.

2-бўлим: Компаниянинг асосий операциялари ҳисоби

2.1-бўлинма. МҲХС талабларига кўра захиралар ҳисоби асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲХС / IAS 2 «Захиралар» талабларига мувофиқ захираларни аниқлаш;
- B. Захираларнинг бошланғич қийматини шакллантириш тамойилларини тушунтириш;
- C. Захиралар бўйича кредиторлик қарзини муддатидан олдин сўндирганлик учун чегирмаларни етказиб берувчиларнинг савдо чегирмаларидан фарқлаш;
- D. Захираларнинг бошланғич қийматини махсус идентификациялаш, ўртача тортилган ва FIFO услублари билан ҳисоблаш;
- E. Захираларни бошланғич баҳосини ҳисоблаш услубининг танлови фойдага ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда захиралар катталигига қандай таъсир кўрсатишини тушунтира билиш;

- F. Ишлаб чиқариш компаниясида товарлар ҳаракатини ва захираларнинг бошланғич қийматини шакллантиришни (хомашё ва материаллардан тайёр маҳсулотгача) счётларда қайд этиш;
- G. Захираларни кейинги баҳоланишини бухгалтериянинг эҳтиёткорлик тамойилининг амалга оширилиши сифатида тушунтириш, бошланғич қийматни реализация қилишнинг соф қийматигача ҳисобдан чиқарилиши операциясини ҳисобда қайд этиш;
- H. Етказиб берувчиларга тўловнинг турли схемаларида (олдиндан тўлов, дарҳол тўлов ёки қарзга сотиш) захиралар харидини қайд этиш;
- I. Тўловнинг турли схемаларида харид қилинган захираларни қайтаришни ҳисоб тизимида қайд этиш;
- J. Захиралар ҳаракатини ҳисобга олишда зарур бўлган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.2-бўлим. МҲҲС / IFRS 15 «Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум» талабларига мувофиқ тушум ҳисоби асослари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲҲС / IFRS 15 «Тушум»га кўра тушумни аниқлаш;
- B. Тушумни ҳисобга олишнинг 5 та қадамини санаб ўтиш;
- C. Ўзгарувчан қоплаш суммаси сифатида ҳисобга олинувчи харидорларга берилган савдо чегирмаларини дебитор қарздорликни муддатидан аввал сўндирганлик учун чегирмалардан фарқлаш;
- D. Агентлик сотувлар схемасида харидорлардан олинган суммаларни ва агент тушумини фарқлаш;
- E. Харидорлар томонидан турлича тўлов схемаларида (олдиндан тўлов, дарҳол тўлов ёки қарзга сотишда) тушумни қайд этиш;
- F. Сотувларнинг қайтарилишини, шунингдек, уларнинг эҳтимоллигидан келиб чиқиб сотувларнинг қутилаётган қайтарилишини қайд этиш;
- G. Тушум ҳисобини юритишда (жумладан, агентли сотувлар схемасида ҳам) талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш;
- H. Фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботда ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда тан олиниши лозим бўлган суммаларни аниқлаган ҳолда, назоратни ўтказиш пайтида тушумни тан олиш тамойилини қўллаш (фақат назоратнинг бир вақтнинг ўзида ўтказилиши ҳолатлари учун);
- I. Фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботда ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда тан олиниши лозим бўлган суммаларни аниқлаган ҳолда, давр мобайнида кўрсатилган хизматлар бўйича тушумни тан олиш тамойилини қўллаш (фақат буюртмачи хизмат орқали яратиладиган «актив»ни бир вақтнинг ўзида олиш ва уни истеъмол қилиши ҳолатлари учун).

2.3-бўлим: МҲҲС талабларига мувофиқ қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) ҳисоби

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига кўра ташкилот ҚҚС тўловчисига айланадиган мезонларни санаб ўтиш;
- B. Ўзбекистон Республикасида қўлланиладиган ҚҚС ставкаларини санаб ўтиш;

- С. ҚҚС билан сотиш ва харид қилиш операцияларини, шунингдек ҚҚС бўйича бюджет билан ҳисоб-китоб операцияларини ҳам журнал шаклида, ҳам бош китобдаги ҚҚС счётида қайд этиш;
- Д. ҚҚС ҳисобини юритишда талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.4-бўлим: МҲҲС / IAS 16 «Асосий воситалар» талабларига мувофиқ асосий воситалар ҳисоби асослари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А. МҲҲС / IAS 16 «Асосий воситалар»га кўра асосий воситаларни аниқлаш;
- В. Асосий воситаларнинг бошланғич қийматини шакллантириш тамойилларини тушунтириш;
- С. Бошланғич қиймат бўйича кейинги баҳолаш моделини тушунтириш;
- Д. Амортизацияни ҳисоблаш усулини танлаш асосида мужассам бўлган тамойилларни тушунтириш;
- Е. Фойдали хизмат муддати ва/ёки тугатиш қийматининг бошланғич баҳолари аҳамиятли даражада ўзгарганда уларни қайта кўриб чиқиш заруриятини тушунтириш;
- Ғ. Исталган усулда амортизацияни ҳисоблашни қайд этиш;
- Г. Кейинги баҳолашнинг қайта баҳоланган қиймат моделини тушунтириш;
- Н. Ҳаққоний қийматни МҲҲС / IFRS 13 «Ҳаққоний қийматни баҳолаш»га мувофиқ аниқлаш;
- И. Асосий воситаларни харид қилиш операцияларини қайд этиш;
- Ж. Асосий восита бўйича қайта баҳолаш резервининг мавжудлигини ёки мавжуд эмаслигини ҳисобга олган ҳолда МҲҲС / IAS 16 «Асосий воситалар»да рўхсат этилган иккала усулда қайта баҳолашни қайд этиш;
- К. Бошланғич қиймат модели ҳамда қайта баҳоланган қиймат модели бўйича ҳисобга олинган асосий воситаларни ҳисобдан чиқаришдан фойда ёки зарарни ҳисоблаш;
- Л. Илгари қайта баҳоланган асосий воситанинг ҳисобдан чиқарилиши операциясини жамғарилган қайта баҳолаш резервини ўтказиш, шунингдек, жамғарилган қайта баҳолаш резервини ўтказмаслик орқали қайд қилиш ва ортиқча эскиришни ўтказишни акс эттириш учун капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботдан кўчирмани тайёрлаш;
- М. Қайта баҳолаш натижасида ҳосил бўлган ортиқча эскириш суммасини ҳисоблаш ва ортиқча эскиришни ўтказишни акс эттириш учун капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботдан кўчирмани тайёрлаш;
- Н. Асосий воситани ҳисобдан чиқарилишини бир вақтнинг ўзида янги асосий воситани харид қилиш (трейд-ин) билан бирга қайд этиш ва ҳисобдан чиқариш бўйича фойда ёки зарарни ҳисоблаш;
- О. Асосий воситаларнинг ҳисобини юритиш учун талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.5-бўлинма. МҲҲС / IAS 38 «Номоддий активлар» талабларига мувофиқ номоддий активлар ҳисоби асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲҲС / IAS 38 «Номоддий активлар»га мувофиқ номоддий активларни аниқлаш;
- B. замонавий ташкилотда номоддий активларнинг асосий синфларини санаб ўтиш;
- C. номоддий активларнинг бошланғич қийматини шакллантириш тамойилларини тушунтириш;
- D. номоддий активларни бошланғич ва қайта баҳоланган қиймати бўйича кейинги баҳолаш моделларини тушунтириш;
- E. номоддий активларга нисбатан қайта баҳоланган қиймат бўйича ҳисоб моделини қўллашга нисбатан стандарт томонидан белгиланган чекловларни баён этиш;
- F. номоддий активларнинг амортизациясини ҳисоблаш асосида ётган ёндашувларни, шу жумладан, фойдали хизмат муддатини баҳолаш билан боғлиқ мураккабликларни тушунтириш;
- G. тадқиқотларга ва тажриба-конструкторлик ишларига харажатларни аниқлаш ва улар ўртасидаги фарқни тушунтириш;
- H. тадқиқотларга ва тажриба-конструкторлик ишларига харажатларни бош китобнинг счётларида қайд этиш;
- I. номоддий активлар ҳисобини юритишда талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.6-бўлинма. МҲҲС / IAS 37 «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар» талабларига мувофиқ баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар ҳисоби асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲҲС / IAS 37 «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар»га мувофиқ баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активларни аниқлаш;
- B. Ўтмишдаги мажбуриятлар юклайдиган ҳодисаларни келажақда мажбуриятларни муқаррар бажаришга олиб келувчи ҳодисалар сифатида таърифлаш;
- C. Юридик мажбуриятларни амалиёт билан боғлиқ мажбуриятлар билан таққослаш;
- D. Ҳисоботда баҳоланган мажбуриятларни тан олиш тамойилларини ва уларни эксперт баҳоси услуби билан баҳолашни тушунтириш;
- E. Баҳоланган мажбуриятларни бош китобнинг счётларида бошланғич тан олинимида ҳамда уларнинг баҳосини кейинчалик ўзгаришида қайд этиш;
- F. Шартли ва баҳоланган мажбуриятларни ўзаро таққослаш ва шартли мажбуриятларни ҳисоботда тан олишга оид ёндашувни тушунтириш;
- G. Шартли мажбуриятларни ва шартли активларни ўзаро таққослаш ва шартли активларни ҳисоботда олишга оид ёндашувни тушунтириш;
- H. Баҳоланган мажбуриятларнинг ҳисоби ва шартли мажбуриятларни ҳамда шартли активларни ҳисоботда акс эттириш бўйича талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.7-бўлинма. МҲҲС талабларига мувофиқ акциядорлик капитали ва қарзли молиялаштириш ҳисоби асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲҲС / IAS 32 «Молиявий инструментлар: тақдим этиш»га кўра хусусий ва қарз капиталини фарқлаш;
- B. Оддий қарзлар ва купонли облигациялар бўйича фоиз харажатларини бир давр учун ёки пропорционал-вақтбай асосда даврнинг бир қисми учун ҳисоблашни ва сўндиришни қайд этиш (фақат самарали фоиз ставкаси купон ставкасига тенг бўлган ҳолда);
- C. Компаниянинг оддий ва имтиёзли акциялари ўртасидаги фарқларни тушунтириш;
- D. Акциядорлик капитали ва эмиссион даромад счётларини фарқлаган ҳолда, компаниянинг оддий акциялари эмиссиясини дарҳол тўлов, олдиндан тўлов ва кечиктирилган тўлов билан қайд этиш;
- E. Акцияларнинг бепул (бонусли) эмиссиясига таъриф бериш ва уни бош китобнинг счётларида қайд этиш;
- F. Ҳуқуқларни чиқариш доирасидаги акциялар эмиссиясини бош китобнинг счётларида қайд этиш, ҳуқуқлар чиқарилишига таъриф бериш;
- G. Оддий акциялар бўйича дивидендларни ҳисоблашни ва сўндиришни қайд этиш;
- H. Акциядорлик капитали ва қарзли молиялаштириш ҳисобини юритишда талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

2.8-бўлинма. МҲҲС / IFRS 9 «Молиявий инструментлар» талабларига мувофиқ дебитор қарздорликнинг қадрсизланиши ҳисобининг асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. дебитор қарздорликнинг қадрсизланишини ҳисобга олиш ва уни тиклаш операцияларини қайд этиш;
- B. берилган ахборот асосида битта дебитор ҳамда дебиторлар гуруҳи учун дебитор қарздорликнинг қадрсизланиши суммасини ҳисоблаш;
- C. дебитор қарздорликнинг қадрсизланиши бўйича бирламчи резервни ҳисобга олиш ва унинг кейинги ўзгаришлари операцияларини қайд этиш;
- D. дебитор қарздорликнинг қадрсизланиши бўйича резерв ўзгаришларининг давр учун фойдага ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботга таъсирини тушунтириш;
- E. дебитор қарздорликнинг қадрсизланиши бўйича резервнинг ҳисобини юритишда талаб этиладиган асосий бирламчи бухгалтерия ҳужжатларини санаб ўтиш.

3-бўлим: Молиявий ҳисоботни тайёрлаш жараёни

3.1-бўлинма. Бизнеснинг операциялари тўғрисидаги ахборотни қайд этиш тизими

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Иккиёқлама ёзув тизимини, бухгалтерия тенгламасини ва бизнес тенгламасини тушунтириш;
- B. Ҳисоб тизими тузилмасини тушунтириш, шунингдек, унинг таркибий модулларининг (харидлар китоби, сотувлар китоби ва ҳ. к.) вазифасини санаб ўтиш ва ўзаро боғлиқлигини тушунтириш;
- C. МҲҲС тизимида счётларнинг ягона режаси мавжуд эмаслигига қарамай, ташкилотнинг счётлар режасининг вазифаси ва тузилишини тушунтириш;
- D. Ҳисоб ахборотини қайд этиш тизимида қайдномалар ва журналларнинг ролини тушунтириш;
- E. Журналдаги ўтказмаларни уларнинг таърифига кўра танлаш;
- F. Ташкилотда нақд пул маблағлари айланмасини ҳисобга олиш тизимларини (шу жумладан камаймайдиган қолдиқли тизимни ҳисобга олган ҳолда) тушунтириш;
- G. Ҳисоб сиёсатини аниқлаш ва унинг асосий вазифаларини тушунтириш.

3.2-бўлинма. МҲҲС / IAS 1 «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш»нинг талабларига мувофиқ молиявий ҳисоботнинг формати

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. МҲҲС бўйича молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот форматини тавсифлаш;
- B. айланмадаги ва айланмадан ташқари активлар ҳамда ўзоқ муддатли ва қисқа муддатли мажбуриятлар ўртасидаги фарқни тушунтириш;
- C. молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда хусусий капитални компонентларга бўлиш заруратини тушунтириш;
- D. молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот билан бухгалтерия тенгламаси ўртасидаги боғланишни тушунтириш;
- E. даромадларни ва харажатларни гуруҳлашнинг эҳтимолий вариантларини ҳисобга олган ҳолда, МҲҲСга кўра фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот шаклини баён этиш;
- F. фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисоботда алоҳида кўрсатилиши лозим бўлган даромадлар ва харажатларнинг зарурий моддаларини санаб ўтиш;
- G. фойда ва зарарлар ҳамда бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот ва капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботлар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тушунтириш;
- H. хусусий капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисобот форматини тавсифлаш ва унинг имтиҳон дастурига киритилган компонентларини санаб ўтиш;
- I. молиявий ҳисоботни тайёрлаш контекстида муҳимлик тушунчасини тушунтириш;
- J. молиявий ҳисоботдаги ёритишларнинг асосий компонентларини санаб ўтиш.

3.3 бўлинма: Айланма-қолдиқ қайдномасини тайёрлаш ва таҳлил қилиш

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. бош китобнинг счётларидан айланма-қолдиқ қайдномасини тайёрлаш;
- B. замонавий ҳисобда аниқлаштириш жараёнидаги счётнинг пайдо бўлиши сабабларини тушунтириш ва аниқлаштириш жараёнидаги счётнинг қолдиғини нолга айлантириш бўйича ўтказмаларни қайд этиш;
- C. иккиёқлама ёзувга оид хатоларнинг турли шакллари аниқлаш;
- D. бухгалтерия хатоларининг ва уларни тузатишнинг давр учун фойдага таъсирини тушунтириш;
- E. ҳисоботдаги дебитор қарздорлик суммасини тасдиқлаш учун харидорлар билан солиштирмаларни тайёрлаш ва фойдага таъсирини баҳолаган ҳолда аниқланган хатоларни тузатиш;
- F. ҳисоботдаги кредитор қарздорлик суммасини тасдиқлаш мақсадида етказиб берувчилар билан солиштирмаларни тайёрлаш ва фойдага таъсирини баҳолаган ҳолда аниқланган хатоларни тузатиш;
- G. ҳисоботдаги пул маблағлари ва уларнинг эквивалентлари суммасини тасдиқлаш учун банк билан солиштирмани тайёрлаш ва фойдага таъсирини баҳолаган ҳолда аниқланган хатоларни тузатиш;
- H. айланма-қолдиқ қайдномасидаги ҳисобланмалар ва берилган бўнақлар бўйича тузатишлар киритиш заруриятини тушунтириш.

3.4-бўлинма. Ҳисобот даврини ёпиш жараёни

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. барча текширувлар тугаганидан сўнг бош китоб счётларини ёпишни амалга ошириш;
- B. айланма-қолдиқ қайдномасининг маълумотлари асосида компания ёки якка тартибдаги тадбиркор учун фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботни, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботни, капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш;
- C. даврни ёпишга оид асосий тузатишларни амалга ошириш: ҳисобланмалар/берилган бўнақлар (шу жумладан, жорий солиқни ва мол-мулк солиғини ҳисоблаш), амортизацияни ҳисоблаш, захираларнинг чиқувчи қолдиғига тузатиш киритиш, дебиторлик қарзининг қадрсизланиши бўйича резервни ҳисоблаш ва имтиҳон дастурига киритилган бошқа акс эттирилмаган ҳодисалар;
- D. ҳисобот давридан кейинги ҳодисаларнинг ҳисоботга таъсирини инобатга олган ҳолда молиявий ҳисоботни тайёрлашнинг вақтга боғлиқ жиҳатини баён этиш;
- E. ҳисобот даври тугаганидан кейин тузатиш киритувчи ва тузатиш киритмайдиган ҳодисаларни аниқлаш;
- F. имтиҳон дастурига киритилган одатдаги ҳодисаларни ҳисобот даври тугаганидан сўнг тузатиш киритадиган ва тузатиш киритмайдиганларга ажратиш;
- G. бевосита молиявий ҳисоботларни тайёрлаш билан бир қаторда ҳисоботга оид қўшимча ахборотни ёритиш заруриятини тушунтириш.

3.5-бўлинма. МҲҲС / IAS 7 «Пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот» талабларига мувофиқ пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Учта молиявий ҳисоботга қўшимча равишда алоҳида пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботнинг заруриятини тушунтириш;
- B. Фойда ва пул оқимларини фарқлаш;
- C. МҲҲС талабларига кўра пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботнинг иккала форматини тавсифлаш;
- D. Имтиҳон дастурига киритилган операцияларнинг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботнинг тегишли категорияларига таъсирини аниқлаш;
- E. Берилган ахборот асосида операцион фаолиятдан пул оқимлари суммасини ҳисоблаб чиқариш;
- F. Берилган ахборот асосида инвестицион фаолиятдан пул оқимлари суммасини ҳисоблаб чиқариш;
- G. Берилган ахборот асосида молиявий фаолиятдан пул оқимлари суммасини ҳисоблаб чиқариш;
- H. Фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботлардан акциядорлик компанияси учун пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботни бевосита ва билвосита услуб билан тайёрлаш;
- I. Пул маблағлари ва уларнинг эквивалентлари таркибига қандай моддалар кириши мумкинлигини санаб ўтиш.

4-бўлим: Молиявий ҳисоботни тўлиқ бўлмаган ёзувлар асосида тиклаш

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. тўлиқ бўлмаган ҳисоб ёзувлари асосида якка тартибдаги тадбиркор учун фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботни, молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботни, капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш;
- B. тушумнинг, таннархнинг ва ялпи фойданинг, шунингдек, захираларнинг кирувчи ёки чиқувчи қолдиқлари ва давр учун захираларнинг харидлари ҳажмининг етишмаётган моддаларини излаш учун устама ва/ёки фойда нормаси формулаларини қўллаш;
- C. сотувлар таннархини аналитик баҳолаш услубини захираларнинг кирувчи ва чиқувчи қолдиғи билан давр учун захиралар харидининг ҳажми ўртасидаги фарқ сифатида қўллаш;
- D. дебитор қарздорликнинг (олинган бўнақларнинг) давр учун динамикасида ва харидорлардан олинган суммалардан давр учун даромадларни ҳисоблаш;
- E. кредитор қарздорликнинг (берилган бўнақларнинг) давр учун динамикасида ва етказиб берувчиларга тўланган суммалардан давр учун харажатларни ҳисоблаш;
- F. ҳисобланмаларнинг (аккруалларнинг) давр учун динамикаси ва контрагентларга ёки контрагентлар томонидан тўланган суммалардан давр учун даромадларни ёки харажатларни ҳисоблаш;

- Г. харидорлар ва етказиб берувчилар билан солиштира маълумотлар асосида дебитор ёки кредитор қарздорлик катталигини ҳисоблаш;
- Н. банк билан солиштира маълумотлар асосида пул маблағлари баланси катталигини ҳисоблаш;
- И. активлар, мажбуриятлар, даромадлар ва харажатларнинг ҳаракати асосида якка тартибдаги тадбиркор капиталидаги ўзгаришларни ҳисоблаш.

5-бўлим: Компаниялар гуруҳи учун ҳисоботни тайёрлаш тамойиллари

5.1-бўлим. МҲҲС / IFRS 10 «Консолидациялашган молиявий ҳисобот» ва МҲҲС / IFRS 3 «Бизнес бирлашувлари» талабларига мувофиқ консолидациялашган ҳисоботни тайёрлаш асослари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А. Инвестициялар объектини шўба компанияси сифатида таснифлаш учун зарур бўлган назорат мезонларини санаб ўтиш;
- В. Гудвил ва назорат кучига эга бўлмаган ўлушнинг тўлиқ ёки қисман ҳисобга олиш услубларини танлаш имконини берадиган шартларни ажрата олиш;
- С. Шўба компаниядаги назорат кучига эга ўлуш фақат бир вақтнинг ўзида харид қилинганда, шу жумладан, шўба компанияси жорий даврда харид қилинганда консолидациялашган фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисобот ва консолидациялашган молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш;
- Д. Гудвилни ҳам қисман, ҳам тўлиқ ўлушда ҳисоблаш формуласини қўллаш ва тушунтириш (инвестициялар фақат пул маблағлари билан тўлиқ ва дарҳол тўланганда);
- Е. Гудвилнинг МҲҲС / IAS 38 «Номоддий активлар» билан тартибга солинадиган бошқа номоддий активлардан фарқини тушунтириш;
- Ф. Шўба компаниянинг харид қилиш санасидаги индивидуал соф активлари қийматини ҳаққоний қийматгача тузатиш (фақат амортизация қилинмайдиган актив, яъни ер мисолида);
- Г. Шўба компаниядаги назорат кучига эга бўлмаган ўлушни ҳам қисман, ҳам тўлиқ ўлушда ҳисоблаш формуласини қўллаш ва тушунтириш;
- Н. Консолидациялашган тақсимланмаган фойдани ҳисоблаш формуласини қўллаш ва тушунтириш;
- И. Гуруҳ ичида балансланган дебиторлик ва кредиторлик қарзларининг пайдо бўлиши сабабини ва молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот учун зарур тузатишларни тушунтириш;
- Ж. Захираларнинг гуруҳ ичидаги савдосида реализация қилинмаган фойданинг пайдо бўлиши сабабини ва сотувлар йўналишини ҳисобга олган ҳолда молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот учун зарурий тузатишларни тушунтириш;

- К. Ички гуруҳ айланмаларининг пайдо бўлиши сабабини ва фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот учун зарурий тузатишларни тушунтириш;
- Л. Захираларнинг гуруҳ ичидаги савдосида реализация қилинмаган фойданинг пайдо бўлиши сабабини ва сотувлар йўналишини ҳисобга олган ҳолда фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот учун зарурий тузатишларни тушунтириш.

Изоҳ: ушбу бўлинмага шуъба компанияси гудвилининг қадрсизланиши, шуъба компаниянинг харид санасидаги соф активларини ҳаққоний қийматгача тузатишлар (5.1.F-бандида кўрсатилганларидан ташқари) кирмайди. Бундан ташқари, шуъба компаниядаги эгалик қилиш улушининг ўзгаришлари ва шуъба компаниянинг чиқиб кетиши бўлинмадан олиб ташланган.

5.2-бўлинма. МҲҲС / IAS 28 «Таъсир остидаги ташкилотларга ва қўшма корхоналарга инвестициялар» талабларига мувофиқ таъсир остидаги компанияларнинг улушли ҳисоби асослари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А. аҳамиятли таъсир вазиятининг вужудга келиши ва инвестиция объектини таъсир остидаги компания сифатида таснифлаш учун зарур бўлган мезонларни санаб ўтиш;
- В. келтирилган ахборот асосида назорат ва аҳамиятли таъсирни фарқлаш;
- С. инвестор компаниянинг молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботи учун таъсир остидаги компанияга инвестицияларни улушли ҳисобга олиш тамойилини, жумладан таъсир остидаги компания йил давомида харид қилинганида, қўллаш ва тушунтириш;
- Д. инвестор компаниянинг фойда ва зарарлар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисоботи учун таъсир остидаги компанияга инвестицияларни улушли ҳисобга олиш тамойилини, жумладан таъсир остидаги компания йил давомида харид қилинганида, қўллаш ва тушунтириш.

Изоҳ: реализация қилинмаган фойда бўйича тузатишлар, таъсир остидаги компанияга инвестицияларнинг қадрсизланиши, таъсир остидаги компаниянинг харид санасидаги соф активларини ҳаққоний қийматгача тузатишлар ушбу бўлинмага кирмайди. Бундан ташқари, таъсир остидаги компанияга эгалик қилиш улушининг ўзгаришлари ва таъсир остидаги компаниянинг чиқиб кетиши бўлинмадан олиб ташланган.

6-бўлим: Молиявий ҳисоботнинг базавий таҳлили

6.1-бўлинма. Молиявий ҳисобот таҳлилининг мақсадлари, услублари ва чекловлари

Ушбу бўлинмани ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А. молиявий ҳисоботнинг базавий таҳлили мақсадлари ва услубларини тушунтириш;
- В. коэффициентли таҳлилнинг асосий чекловларини тушунтириш.

6.2-бўлим. Молиявий ҳисобот таҳлилининг асосий инструментлари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Молиявий ҳисоботнинг горизонтал, вертикал ва коэффицентли таҳлилни тушунтириш;
- B. Асосий молиявий коэффицентларни бир неча категорияларга (ликвидлик, рентабеллик, молиявий барқарорлик ва активлардан фойдаланиш самарадорлигига) таснифлаш;
- C. Жорий ва муддатли ликвидлик коэффицентлари формуласини қўллаш ҳамда умуман олганда ва таҳлил қилинаётган ташкилот ҳолатида уларнинг аҳамиятини тушунтириш;
- D. Компания ликвидлигига таъсир қилувчи молиявий омилларни тушунтириш;
- E. Соф фойда маржаси, операцион фойда маржаси ва ялпи фойда маржаси, киритилган капитал рентабеллиги ва хусусий капитал рентабеллиги коэффицентларининг формуласини қўллаш ҳамда умуман олганда ва таҳлил қилинаётган ташкилот ҳолатида уларнинг аҳамиятини тушунтириш;
- F. Компаниянинг рентабеллигига таъсир қилувчи молиявий омилларни тушунтириш;
- G. Молиявий дастак коэффицентларини ва фоизларни қоплаш коэффицентини формуласини қўллаш ва умуман олганда ҳамда таҳлил қилинаётган ташкилот ҳолатида уларнинг аҳамиятини тушунтириш;
- H. Компаниянинг молиявий барқарорлигига таъсир қилувчи молиявий омилларни тушунтириш;
- I. Айланмадан ташқари активларнинг айланувчанлиги (неча марта ҳисобида), дебитор қарздорлик айланувчанлиги (неча марта ва кунлар ҳисобида), кредитор қарздорлик айланувчанлиги (неча марта ва кунлар ҳисобида) ва умумий захираларнинг айланувчанлиги (неча марта ва кунлар ҳисобида) коэффицентлари формуласини қўллаш ҳамда умуман олганда ва таҳлил қилинаётган ташкилот ҳолатида уларнинг аҳамиятини тушунтириш;
- J. Компания активларини бошқариш самарадорлигига таъсир қилувчи молиявий омилларни тушунтириш.

7-бўлим: Математик кўникмалар

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- A. Бир номаълумли чизиқли тенгламаларни ечиш;
- B. Бутун сонгача, шунингдек вергулдан кейин битта ёки иккита белгигача яхлитлаш усулларини қўллаш.